

XORAZM VILOYATI SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH DINAMIKASI

Matchanova Zamira Ixambay qizi

Mustaqil izlanuvchi

Аннотация: Мақоллада сув ресурслари танқислиги ва undan foydalanishdagi tadrijiy jihatlar bayon qilingan. Xorazm viloyati sugʻoriladigan yerlariga ishlatiladigan сув miqdorining 2010 - 2021 yillardagi oʻzgarishlari ilmiy tahlil qilingan.

Таянч сўзлар: сув ресурслари, Xorazm viloyati, sugʻoriladigan yerlar, shoʻr yuvish, dinamika, baliq xoʻjaligi.

Abstract: The article describes the shortage of water resources and the gradual aspects of its use. The scientific analysis of changes in the amount of water used for irrigated lands in Khorezm region in 2010-2021.

Key words: water resources, Khorezm region, irrigated lands, salt washing, dynamics, fisheries.

KIRISH

Bizga maʼlumki yildan yilga chuchuk suvga boʻlgan ehtiyoj ortib bormoqda. Buning zamirida esa chuchuk suv shakllanishi bilan bogʻliq muammolar yotadi. Holbuki, yer sharidagi jami suv miqdorining 2,5 foizini chuchuk suv tashkil qilsa, qolgan 97,5 foizi shoʻr suvlardan iborat [2]. Mazkur jarayon ayniqsa, arid mintaqalarda juda tez rivojlanib bormoqda. Oʻzbekiston Respublikasining katta qismi qurgʻoqchil hududlardan iborat boʻlganligi sababli, suv ресурslari bilan bogʻliq masalalar dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa uning gʻarbiy qismida vaziyat yildan yilga murakkablashib bormoqda.

Mamlakatimizning gʻarbiy qismida joylashgan viloyatlaridan biri Xorazm ham suv ресурslari tanqis boʻlgan asosiy hududlardan sanaladi. Vaholanki, bu yerda aholi zichligi (Andijondan keyin) oʻta yuqori boʻlib, ularning asosiy mashgʻuloti dehqonchilik hisoblanadi. Viloyat Qoraqalpogʻiston Respublikasi va janubda Buxoro viloyati bilan, gʻarbda va janubi-gʻarbda Turkmaniston davlati bilan chegaradosh. Hududining asosiy qismi Amudaryoning soʻl sohilida joylashgan. Amudaryo boy tarix va madaniyatga ega boʻlgan Xorazm taqdirida katta rol oʻynagan; Nil daryosi qadimgi Misr uchun qanchalik ahamiyatli boʻlgan boʻlsa,

Amudaryo (Oks) ham Xorazm o'lkasi uchun shunchalik muhim bo'lgan. Mintaqaning suv resurslari bilan ta'minlanishi dinamikasida ham bir qator o'zgarishlarni kuzatish mumkin.

Xorazm viloyati 2010 yildagi sarflangan suv miqdori hajmi 4275,8 mln m³ ni tashkil qilgan(1-jadval). Ushbu ko'rsatkichni 100 foiz deb oladigan bo'lsak, shuning 97,3 foizi sug'orishga sarflangan. Qolgan 0,8 foizi baliq xo'jaligiga, 1,9 foizi kommunal xo'jalikka, 2,7 foizi boshqa yerlar hisobiga to'g'ri keladi. 2011 yilga kelib esa bu ko'rsatkich ancha pasayib, bir yillik suv miqdori 2629,9 mln m³ gacha tushgan. Bu esa 2010 yilga nisbatan 1,5 baravar past ko'rsatkich demakdir. Buning sababi sifatida tog'larda qor va muzlarning ancha kam shakllanganligi hamda Amudaryo suvining kamayib ketganligini ko'rsatish mumkin. Yog'in miqdorining kamligi keying yillarda ham sezildi, ya'ni 2012 yilda jami suv miqdori 4164,5 mln va 2013 yilda 3988,6 mln m³ni tashkil qildi. Suv muammosi tufayli viloyat sug'oriladigan yerlari, baliq xo'jaligi, kommunal xo'jalik va boshqa tarmoqlarda ham suv resurslari borasida tanqisliklar vujudga kelgan. Umuman olganda 2011-2014 yillar mobaynida viloyat agroiqtisodiyotida suv yetishmovchiligi muntazam kuzatilib kelindi [5].

2015 yilda sarflangan suv hajmi 4496,6 mln m³ ni, 2016 yilda 4175,9 mln m³ ni, 2017 yilga kelib esa bu ko'rsatkich 4038,8 mln m³ ni tashkil etdi. Mazkur yillarda suv miqdorida unchalik kamayish kuzatilmagan bo'lsa ham, aholining suvga bo'lgan ehtiyoji ortib borishi natijasida sug'orishga, kommunal xo'jalikka va boshqa tarmoqlarga kerakli suv miqdorida ma'lum bir tanqisliklar kelib chidi. 2018 yilda yillik sarflangan suv miqdori yana ham kamaydi (3595,3 mln m³), bundan tashqari qishloq xo'jaligi yerlarining sho'rlanish darajasi ham oshib ketdi. Yog'in sochin miqdorining oshganligi hisobidan 2019 yilda suv hajmi esa ancha o'sdi, ya'ni 4171,4 mln m³ ni tashlik qildi. Bu so'nggi besh yil davomidagi eng yuqori ko'rsatkichdir.

Sug'orishga sarflangan suv miqdori 2020 yilda 3705,165 mln, 2021 yilda esa 3113,7 mln m³ ni tashkil qilib, oxirgi ikki yillikda viloyatda suv tanqisligi kuchaydi. Buning natijasida yerlarni sug'orish, sho'rini yuvish uchun zarur bo'lgan suv miqdori kamayib ketmoqda. Chuchuk suvga bo'lgan ehtiyojning bu qadar oshib borishiga yuqoridagilardan tashqari, aholi sonining oshishi va ehtiyojlarning ortishi ham sabab boladi. So'nggi o'n yil o'rganib chiqilganda, asosan 2011, 2018, 2021 yillarda suv tanqisligi ko'proq bo'lgani kuzatildi. Bunga suv miqdorining kamayishi bilan birga, unga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganini ko'rsatish mumkin.

Xorazm viloyati O‘zbekistonning suv resurslariga eng bog‘liq hududlaridan biri hisoblanadi. Amudaryo vodiysida joylashgan ushbu viloyatning iqtisodiyoti, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi va sanoati suv resurslaridan foydalanishga bevosita bog‘liq. So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishlari, suv resurslarining kamayishi va aholi sonining o‘shishi natijasida suvdan foydalanish tizimida muayyan o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

1. Xorazm viloyatining suv resurslari

Xorazm viloyatining asosiy suv manbai Amudaryo hisoblanadi. Viloyatdagi qishloq xo‘jaligi va sanoat korxonalarida daryo suvlaridan foydalanadi. Shuningdek, yer osti suv zaxiralari ham ichimlik suvi va sug‘orish maqsadida qo‘llaniladi.

Oxirgi yillarda suv resurslaridan foydalanish hajmida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Masalan, qishloq xo‘jaligidagi sug‘orish tizimlari zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda takomillashtirilmoqda, suvni tejash maqsadida tomchilatib sug‘orish usullari keng joriy etilmoqda.

2. Suv ta‘minoti va infratuzilma rivoji

Xorazm viloyatida ichimlik suvi ta‘minotini yaxshilash bo‘yicha hukumat tomonidan qator loyihalar amalga oshirilmoqda. So‘nggi besh yil ichida markazlashgan ichimlik suvi bilan ta‘minlash darajasi 52,1 foizdan 90,4 foizga yetkazildi. Bu viloyatda ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojning qondirilishida katta yutuq bo‘ldi.

Biroq, suv ta‘minotidagi muammolar hali ham mavjud. Jumladan, qishloq hududlarida ichimlik suvi infratuzilmasini yaxshilash talab etiladi. Buning uchun yer osti suv manbalaridan foydalanish va yangi quduqlar qazish ishlari olib borilmoqda.

3. Qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanish

Xorazm viloyati asosan qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadi va suv resurslarining katta qismi aynan ushbu sektorga yo‘naltiriladi. Sholichilik va paxtachilik kabi ekinlar suvni ko‘p talab qiladi. Shuning uchun suvdan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- Tomchilatib sug‘orish va yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalarini keng joriy etish
- Suv sarfini kamaytirish uchun sug‘orish kanallarini betonlash
- Zamonaviy gidrologik monitoring tizimlarini yo‘lga qo‘yish

4. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Xorazm viloyatida suv resurslarini boshqarish uchun innovatsion texnologiyalar joriy etilmoqda. Xususan:

- Sunʼiy yoʻldosh va dronlar yordamida suv resurslarini nazorat qilish
- Raqamli xaritalar orqali suv oqimlarini kuzatish
- Qishloq xoʻjaligida avtomatlashtirilgan sugʻorish tizimlarini joriy etish
- Bu texnologiyalar suvdan yanada samarali foydalanish va resurslarning behuda sarflanishining oldini olishga xizmat qilmoqda.

Xorazm viloyatida suv resurslaridan foydalanish soʻnggi yillarda ancha yaxshilangan boʻlsa-da, hali ham dolzarb muammolar mavjud. Iqlim oʻzgarishi, suv taʼminotidagi muammolar va qishloq xoʻjaligidagi suv sarfining yuqoriligi shular jumlasidandir.

- Kelajakda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim:
- Suv tejoychi texnologiyalarni yanada keng joriy etish
- Yer osti suvlaridan foydalanishning samaradorligini oshirish
- Suvni boshqarish boʻyicha raqamli tizimlarni rivojlantirish
- Aholining suvdan foydalanish madaniyatini oshirish boʻyicha targʻibot ishlarini kuchaytirish

Agar ushbu choralar amalga oshirilsa, Xorazm viloyati suv resurslaridan samarali foydalanishda yanada yuqori natijalarga erishishi mumkin.

Research Science and Innovation House

I-jadval

Xorazm viloyati sug'oriladigan yerlariga ishlatilgan suv miqdori dinamikasi (mln m³ his.)

№	Tumanlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
1	Bog'ot	386,536	233,512	372,132	350,114	355,858	394,246	351,975	338,301	300,687	332,695	308,133	276,334
2	Gurlan	470,909	308,028	514,294	115,876	515,169	543,139	494,507	500,639	445,521	460,399	388,830	322,686
3	Qo'shko'pir	525,607	305,498	466,697	488,470	468,796	509,926	463,489	441,130	405,031	503,524	496,115	399,434
4	Urganch	444,902	283,734	438,516	430,260	418,036	478,082	450,364	427,206	357,627	468,241	387,891	317,933
5	Xazorasp	308,590	175,874	311,198	286,408	268,739	305,760	291,665	290,996	261,645	287,783	236,426	224,176
6	Xonqa	397,473	254,117	410,082	382,557	379,329	426,827	402,397	394,216	347,352	392,441	322,939	288,036
7	Xiva	357,715	199,372	315,129	319,606	308,433	336,125	313,319	303,658	255,631	326,134	263,676	225,347
8	Shovot	448,801	277,304	414,060	432,231	377,260	468,743	430,757	402,767	375,731	430,875	435,698	348,167
9	Yangiariq	310,290	190,084	282,480	276,853	259,050	300,447	290,747	262,863	248,079	296,653	247,472	204,803
10	Yangibozor	363,471	230,255	367,521	377,510	343,681	406,578	369,985	359,927	332,171	396,351	349,987	277,181
11	Pitnak	84,056	48,922	97,035	96,928	96,270	109,777	94,606	98,995	84,306	92,008	96,146	82,080
12	Qizilqum	62,045	37,678	96,362	72,851	97,406	107,421	106,739	100,761	77,932	79,056	81,294	47,950
Sug'orishga jami		4160,39	25544,38	4085,51	4029,66	3888,03	4381,07	4060,55	3921,46	3491,71	4066,16	3587,60	3014,127
Jami		4275,84	2629,96	4192,21	4136,93	3988,66	4496,63	4175,99	4038,81	3595,34	4171,42	3705,16	3113,749

Manba: Chap qirg'oq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma'lumotlari (<https://xz-hayza.uz/pp/>).

Bu natijani biz tumanlar misolida ham ko'rib chiqadigan bo'lsak, Qo'shko'pir, Shovot, Gurlan tumanlarida yerlarni sho'rini yuvib dehqonchilik qilish uchun sharoit nisbatan yaxshi. Lekin, Pitnak va Qizilqum hududlariga deyarli suv yetib borishi ancha qiyin.

Yillik foydalanilgan suv miqdorini jami yerlar sug'orishiga, baliq xo'jaligiga va kommunal xo'jaliklarga bo'lib ham yillar bo'yicha o'rganib chiqadigan bo'lsak, 2011 yilda jami sug'orishga 4160,3 mln m³ ya'ni jami sarflangan suvning 97,3%, baliq xo'jaligiga 0,8 %, kommunal xo'jalikka 1,9%, boshqa tarmoqlarga 2,7 % to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich 2011 yilda 2544,3 mln m³ ni shu yildagi ko'rsatkichning 96,7% ni, baliq xo'jaligiga 0,5 %, kommunal xo'jalikka 2,8%, boshqa tarmoqlarga 3,3%. Shu yildagi ko'rsatkich boshqa yillardagilarga qaraganda ancha past, sababi

iqlim qurg`oqchil bo`lgan tog`larda qor kam yog`ganligi natijasida suv tanqisligi vujudga kelgan [5].

Xulosa

Xorazm viloyatida suv resurslaridan foydalanish dinamikasi so`nggi yillarda sezilarli darajada o`zgarib, samaradorlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ichimlik suvi ta`minoti yaxshilanib, markazlashgan suv tarmoqlariga ulanish darajasi oshdi. Qishloq xo`jaligida suvni tejavchi texnologiyalar, jumladan, tomchilatib sug`orish va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari joriy qilinmoqda.

Shunga qaramay, suv resurslari bilan bog`liq muammolar hamon dolzarb bo`lib qolmoqda. Iqlim o`zgarishi, suv tanqisligi va qishloq xo`jaligidagi yuqori suv sarfi kabi omillar samarali boshqaruv tizimini yanada rivojlantirish zaruratini tug`diradi.

Kelajakda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, yer osti suv resurslaridan oqilona foydalanish va suvdan foydalanish madaniyatini oshirish orqali Xorazm viloyatida suv resurslarining barqaror boshqarilishini ta`minlash mumkin. Bu esa viloyatning iqtisodiy rivojlanishi va ekologik barqarorligiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Namozov, J. A. (2015). About the importance of the Zarafshan River of Samarkand region's socio-economic development. *Akta NUUZ*, (3/1).
2. Abduazizovich, N. J., Muxamajanovich, S. S., & Amanovich, U. E. (2016). The territorial features of effective use of water resources (as Zarafshan basin). *European science review*, (1-2), 8-10.

3. Soliyev A.S. O'zbekiston geografiyasi (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) -T.:Universitet, 2014. - 404 b.

4. O'zbekiston Respublikasi yer fondi. – T.: O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va kadastr davlat qo'mitasi, 2010 - 2022 yy.

5. Chap qirg'oq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma'lumotlari. – Urganch, 2010 - 2022 yy.



Research Science and
Innovation House

